

“VATANSEVAR NURBEKA” DOSTONIDA AYOL QAHRAMON OBRAZINING BADIY-ESTETIK TALQINI

Madaminova Dilnura Baxodir qizi,

Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti, Urganch davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Erpo‘lat Baxtning “Vatansevar Nurbeka” dostoni badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda yaratilgan Nurbeka obrazi orqali vatanparvarlik, fidoyilik, milliy g‘urur va ma‘naviy jasorat g‘oyalari yoritilgan. Tadqiqotda qahramon xarakterining shakllanishi, uning ruhiy kechinmalari hamda obrazni yaratishda qo‘llanilgan poetik vositalar tahlil etiladi. Shuningdek, dostonning bolalar adabiyotidagi o‘rni va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Erpo‘lat Baxt, “Vatansevar Nurbeka”, bolalar adabiyoti, ayol qahramon, badiiy obraz, vatanparvarlik, fidoyilik, poetika, tarixiy doston, badiiy-estetik talqin.

Аннотация. В данной статье проводится художественно-эстетический анализ поэмы Эрполата Бакhta «Патриотка Нурбека». Через образ Нурбеки раскрываются идеи патриотизма, самоотверженности, национальной гордости и духовного мужества. В исследовании рассматриваются особенности формирования характера героини, её внутренние переживания, а также художественные средства, использованные автором при создании образа. Особое внимание уделяется месту произведения в детской литературе и его воспитательному значению в формировании патриотических чувств у подрастающего поколения.

Ключевые слова: Эрполат Бакhta, «Ватансеваp Нурбека», детская литература, женский образ, художественный образ, патриотизм, самоотверженность, поэтика, историческая поэма, художественно-эстетическая интерпретация.

Abstract. This article presents an artistic and aesthetic analysis of Erpolat Bakht’s poem “Patriotic Nurbeka”. Through the image of Nurbeka, the ideas of patriotism, self-sacrifice, national pride, and moral courage are revealed. The study examines the formation of the heroine’s character, her emotional experiences, and the artistic devices employed in creating the image. Particular attention is paid to the poem’s place in children’s literature and its educational significance in fostering patriotic values among young readers.

Keywords: Erpolat Bakht, “Vatansevar Nurbeka”, children’s literature, female character, artistic image, patriotism, self-sacrifice, poetics, historical poem, artistic and aesthetic interpretation.

Kirish. Bolalar adabiyoti milliy adabiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, yosh avlodning ma‘naviy-axloqiy kamolotida, estetik didini shakllantirishda hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi. Bolalar uchun yaratilgan badiiy asarlar ezgulik, mardlik, jasorat, ona yurtga muhabbat kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Abdug‘afur Rasulovning ta‘kidlashicha, “bolalik deb atalmish g‘aroyib saltanat borki, u zinhor zavol ko‘rmaydi, sinalgan qonun-qoidalari asosida yashayveradi”[4;141]. Darhaqiqat, bolalar adabiyotida yaratilgan badiiy obrazlar yosh kitobxonning dunyoqarashi, ma‘naviy qiyofasi va hayotiy ideallarini shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. O‘zbek bolalar adabiyotida tarixiy mavzudagi asarlar, ayniqsa, yosh avlodni milliy o‘zlik va tarixiy xotira ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. O‘zbek bolalar adabiyoti va unda yaratilgan badiiy obrazlar masalasi adabiyotshunoslikda keng o‘rganilgan. Q.Qahramonovning “O‘zbek bolalar

adabiyoti va tanqidchiligi” asarida bolalar adabiyotining tarbiyaviy-estetik vazifalari yoritilgan bo‘lsa, “Badiiy tahlil asoslari” kitobida obraz, kompozitsiya va poetik vositalarni tahlil qilish tamoyillari izohlangan. H.Boltaboyevning “Adabiy-estetik tafakkur tarixi” asarida badiiy tafakkur va estetik qarashlarning rivojlanish masalalari yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda bolalar adabiyoti va badiiy obraz muammolari o‘rganilgan bo‘lsada, Erpo‘lat Baxtning “Vatansevar Nurbeka” dostonidagi ayol qahramon obrazining badiiy-estetik talqini maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada qiyosiy-tipologik, tavsifiy-tahliliy hamda badiiy matn tahlili metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. Mustaqillik davri bolalar adabiyotida tarixiy shaxslar va milliy qahramonlar obrazini yaratishga alohida e‘tibor qaratildi. Bu borada Erpo‘lat Baxtning “Vatansevar Nurbeka” dostoni e‘tiborga loyiq asarlardan biridir. Asarda XIII asrda mo‘g‘ullar istilosi davrida yashagan Nurbeka ismli qizning vatanparvarligi, fidoyiligi va ma‘naviy jasorati badiiy talqin etiladi. Muallif o‘n besh yoshli qiz obrazida Vatanga muhabbat, xalq taqdiriga daxldorlik hissi va milliy g‘urur kabi fazilatlarni mujassamlashtiradi. Dostonning bosh qahramoni Nurbeka ota-onasidan erta ayrilgan, el-yurtning mehr-muruvvati bilan voyaga yetgan iste‘dodli qizdir. Uning betakror raqsi va san‘atkorlik mahorati Xorazmshoh Muhammad e‘tiborini qozonadi. Shoh uning iste‘dodini qadrlab, ko‘plab oltin-kumushlar, qimmatbaho toshlar va javohirlar bilan siylaydi.

Dostonning bosh g‘oyasi Vatanga muhabbat va sadoqatning har qanday boylikdan ustun ekanligini ko‘rsatishga qaratilgan. Muallif Nurbeka obrazi orqali o‘zbek ayoliga xos go‘zallik, nafosat, jasorat va fidoyilik fazilatlarini mujassamlashtiradi. Asarda Nurbeka nafaqat iste‘dodli raqqosa, balki yurt taqdiri uchun qayg‘ura oladigan, xalq manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo‘yadigan komil inson sifatida gavdalantiriladi.

Doston kompozitsiyasi ham puxta qurilgan bo‘lib, unda Gurganjning tinch va farovon hayoti bilan urushdan keyingi fojiali manzaralar o‘zaro qarama-qarshi qo‘yiladi. Bunday kontrast usuli voqealarning drammatizmini kuchaytirib, qahramonning ruhiy olami hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada ta‘sirchan ochishga xizmat qiladi. Doston an‘anaviy xalq ertaklari va rivoyatlariga xos bo‘lgan manzara tasviri bilan boshlanadi:

Oy nurlari allasi
Erkalasa olamni.

Bir rivoyat aytay deb
Qo‘lga oldim qalamni [1;5].

Doston ekspozitsiyasida Xorazmshoh Muhammad hukmronlik qilgan qudratli davlat manzarasi tasvirlanadi. Muallif Gurganj shahri tasviri, mamlakatning keng hududlari, xalqning osoyishta hayoti, saltanatning qudrati va keyinchalik yuz beradigan fojiviy

voqealar hamda Nurbeka qahramonligini she'riy, sodda, bolalarbop usulda keltiriladi.

Shoh saroyi tasviridan so'ng muallif:

Biroq hozir bu ko'shkda,
Husni mangu qo'shiqda

Bo'lgan qizdan so'ylayman,
Oydek yuzdan so'ylayman [1;6].

. Shoir Nurbekaning bolaligi, uning qiyinchilikda o'sib, el ardog'iga erishganini tasvirlashda milliy folklor va tabiat elementlaridan juda go'zal foydalanadi:

Sho'x o'lan og'ushida,
Bir Xo'tan ohusiday

O'ynar edi Nurbeka,
Qaynar edi Nurbeka.

Titrab nozik barmog'i,
Sayratardi qayrog'in [1;7-8].

Bu yerda muallif qizning go'zalligi va chaqqonligini tasvirlash uchun sharq adabiyotida go'zallik va nafosat timsoli bo'lgan "Xo'tan ohusi" o'xshatishini (tashbih) keltiradi. Shuningdek, qizning raqs tushayotgan holatidagi harakatlari, qayroq chalishi jonli detallar orqali ifodalangan.

Urush boshlanib, xalq sargardonlikka yuz tutganda, Nurbekaning ichki kechinmalari, holati dinamik ritm va parallelizmlar orqali juda ta'sirli chizilgan:

Ketib borar Nurbeka,
O'tib borar Nurbeka.
Yuragida g'amlari
Bo'rtib borar Nurbeka.

Ko'chib borar Nurbeka,
Cho'kib borar Nurbeka.
Yurt talagan mo'g'ulni
So'kib borar Nurbeka [1;23].

Shoir bu o'rinda anafora (misralar boshida bir xil so'zning takrorlanishi) va radif ("borar Nurbeka") usulidan foydalangan. Bu usul yo'l yurish, karvonning harakati bilan birga qizning ko'nglidagi g'amlarning ham ortib borishini ohangdosh qilib ko'rsatadi.

Dostonning eng kulminatsion nuqtasi Nurbekaning o'lim to'shagida turib, o'zining bor-budini yurt himoyasiga atash sahnasidir. Mo'g'ul bosqinchilarining hujumi sabab Nurbekaning ham, butun xalqning ham hayoti keskin o'zgaradi. Gurganj vayron qilinadi, aholi turli mamlakatlarga bosh olib ketishga majbur bo'ladi. Musofirlikda yashashga

mahkum bo'lgan Nurbeka Shomda og'ir xastalikka duchor bo'ladi. Shunga qaramay, uning qalbida Vatanga bo'lgan muhabbat va yurt ozodligi haqidagi orzu so'nmaydi:

Oltin-kumush, zar, tanga,
Bor bisotim, ol, senga!

Ko'hinur olmosni ol,
Yoqut, durni qopga sol!

Ularni sot, qurol yig',
So'ng dushmangan qo'rqmay tig'

Sanchguvchi lashkar to'pla,
Otlan, Vatanga otlan [1;30]!

O'z umrining so'nggi damlarida u xorazmlik bahodir sardorni huzuriga chaqirtirib, o'ziga tegishli barcha boyliklarni Vatan ozodligi yo'lida sarflashni vasiyat qiladi. Nurbeka o'zining butun mol-dunyosini yurt ravnaqi va xalq erkinligi yo'lida fido etadi. Qahramonning barcha boyliklarini Vatan ozodligi yo'lida qurbon qilishi uning vatanparvarlik tuyg'ularining yuksak darajasidan dalolat beradi.

Asar yakunida shoir yosh avlodga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilib, qissadan hissa chiqaradi:

Boyliging to'lib-toshsa,
Yiqqaning chunon oshsa,

Yetmas Vatan, elingga,
Buni jo qil dilingga [1;32].

Bu satrlar orqali shoir Vatan har qanday moddiy boylikdan ustun ekanligini xalqona va lo'nda tilda ifodalab bergan.

Xulosa. Har bir xalqning tarixida el-yurt boshiga og'ir kulfat tushgan pallalarda shaxsiy manfaatlarini Vatan va millat manfaatlaridan ustun qo'ymagan, zarurat tug'ilganda esa jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan fidoyi insonlar yashab o'tgan. Ana shunday qahramonlarning jasorati, mardligi va vatanparvarligi xalq xotirasida saqlanib, badiiy adabiyotda turli obrazlar vositasida abadiylashtiriladi. O'zbek adabiyotida ham tarixiy va vatanparvarlik mavzulari yetakchi o'rinlardan birini egallab, xalqning ozodlik uchun kurashi, milliy g'ururi va yurtga sadoqati badiiy talqin etib kelinadi. Ayniqsa, bolalar adabiyotida tarixiy qahramonlar obrazini yaratish orqali yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotiraga hurmat tuyg'ularini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Erpo'lat Baxt. Vatansevar Nurbeka. – Urganch: “Xorazm yoshlari” nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 32 b.
2. Qahramonov Q. O'zbek bolalar adabiyoti va tanqidchiligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – 192 b.
3. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosbekov J. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 306 b.
4. O'zbek adabiy tanqidi: antologiya / tuzuvchilar: U. Normatov va boshq. – Toshkent: TURON-IQBOL, 2011. – 544 b.
5. Boltaboyev H. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013. – 400 b.

